

ADABIYOTDA IBN SINO OBRZANING YARATILISHI  
СОЗДАНИЕ ИБН СИНА ОБРЗЫ В ЛИТЕРАТУРЕ  
CREATION OF IBN SINA OBRZA IN LITERATURE

*Xayitova Madina Bahodir qizi,  
Farg‘ona davlat universiteti magistratura bo‘limi  
2-kurs adabiyotshunoslik yo‘nalishi magistranti,  
[madinaxayitova@gmail.com](mailto:madinaxayitova@gmail.com)*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada ilmiy va badiiy asarlarda Ibn Sino obrazning yaratilishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar haqida qisqacha so‘z yuritilgan. Bu jarayonda olimning tibbiyot, falsafa, adabiyot va boshqa fan tarmqlariga bag‘ishlangan asarlaridan kelib chiqqan holda, shu bilan bir qatorda tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima asosida mualliflarning ijodiy niyati kelib chiqqan holda mazkur obrazga turlicha yondashilganligiga guvoh bo‘lamiz.

**Kalit so‘zlar:** tibbiyot, falsafa, adabiyot, qushnoma, qomusiy olim, obraz, tarixiy haqiqat, badiiy to‘qima.

**Аннотация:** В этой статье кратко рассказывается о факторах, которые повлияли на создание образа Ибн Сины в научных и художественных произведениях. В этом процессе мы видим, что, исходя из работ ученого, посвященных медицине, философии, литературе и другим отраслям науки, наряду с историческим фактом и художественной фактурой, мы по-разному подходим к этому образу, основываясь на творческом замысле авторов.

**Ключевые слова:** медицина, философия, литература, орнитология, комический ученый, образ, исторический факт, художественная фактура.

**Annotation:** this article briefly talks about the factors that influenced the creation of the image of Ibn Sina in scientific and artistic works. In this process, we witness the different approach of the scientist to the image in question based on the creative intention of the authors based on the historical fact and artistic texture, based on his works dedicated to the branches of medicine, philosophy, literature and other sciences.

**Keywords:** medicine, philosophy, literature, aviary, social scientist, image, historical reality, artistic texture.

Birinchi uyg‘onish davrining yetuk vakillaridan bo‘lmish Abu Ali Ibn Sino insoniyat tamadduniga katta hissa qo‘shgan qomusiy olimlardan hisoblanadi. Fanning ko‘plab tarmoqlariga doir asarlar yaratgan bo‘lsa dunyo ahli Ibn Sinoni tabib sifatida e’tirof etadilar. Shu sababli o‘z davrida “Tabiblar podshohi”, “Shayx ur-raisi”, “Olimlar boshlig‘i” nomlari bilan mashhur bo‘lgan. Bundan tashqari “Ibn-Sino ijodi o‘sha davrning barcha bilim sohalarini — matematika, astronomiya, fizika, kimyo,

biologiya, tibbiyot, farmakologiya, psixologiya, fiziologiya, falsafani qamrab olgan. Sharq mualliflari allomani haqiqatgo‘y, rostgo‘y ma‘nosida “Hujjat ul-haq”, u yashagan mamlakat, o‘lkaning u tufayli obro‘si oshganligi uchun “Sharaf ul-mulk” yoki donishmand, tadbirkor, vazir bo‘lgani uchun “Hakim ul-vazir”, “Ad-Dastur” deb ham atab kelganlar” [1. 68]. Mutaxassislarining takidlashicha Ibn Sino asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi, lekin bizgacha 160 ga yaqin asarlari yetib kelgan. Tibbiyot borasidagi asarlari esa hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Sharq adabiyoti bilan yaxshi tansh bo‘lgan Ibn Sino tibbiyotga oid asarlarining ko‘p qismini aruz vaznlari asosida yaratganilgining o‘ziyoq ijodkorning salohiyati bilan bir qatorda poetik mahoratini ham namoyon etadi. Xususan, rajaz vaznida bir necha tibbiy asarlar yaratgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- ❖ “Sog‘liqni saqlash - gigiyenaga oid urjuza”;
- ❖ “To‘rt fasllar haqida urjuza”;
- ❖ “Anatomiyaga oid urjuza”;
- ❖ “Gippokrat vasiyatlari haqida urjuza”;
- ❖ “Tajribadan o‘tgan tibbiy narsalar haqida urjuza”;
- ❖ “Tibbiy nasihatlar yozilgan urjuza”;
- ❖ “Mantiqqa oid yozilgan urjuza”;
- ❖ “Aloqa haqida urjuza”;
- ❖ “Tabobat haqida urjuza” [2. 127-128].

Ibn Sinoning rajaz bahrida yozishiga ma‘lum darajada ijtimoiy muhit ham ta‘sir qilgan. “Avvalgi o‘tgan shoirlar urush vaqtida, biror narsadan qattiq ta‘sirlanganda yoki madh qilish kerak bo‘lgandagina shu bahrda uch-to‘rt bayt she‘r aytganlar keyinchalik baytlar soni ko‘payib borgan va mustaqil janr sifatida taraqqiy etgan” [3. 8]. Bunday holat Ibn Sino yashagan davrda adabiyotning ijtimoiy hayotdagi mavqeyini ham namoyon etadi. “Arab ma‘rifatparvari va adibi Jurjiy Zaydonning ko‘rsatishicha, rajaz vazni she‘r vaznlarining eng avvalgisi va eng qadimgisidir. Bu vazndagi baytlar masnaviyga o‘xshash qofiyadosh bo‘ladi. Bu vazn o‘z davrida xalqchil, odamlar orasida keng tarqalgan vazn bo‘lgan. Har kim ham bu vaznda she‘r ayta olgan, keyinchalik bu bahr kengayib, urjuza deb ataladigan, qasida va she‘rlar bitilgan. Odatda, gapga usta har bir arab bu yo‘l bilan she‘r ayta olgan” [2.128]. Ibn Sino tibbiyotga oid risolalarini aruzda yaratganligining sababini quyidagicha izohlaydi: “– Men “Urjuza”ga kamolot to‘nini va husn saruposini kiygazdim, uni o‘rganish osonroq, mashaqqati kamroq bo‘lsin deb, to‘qilishini oson, vaznini yengil qildim. Kimki unga idrok ko‘zi bilan qarasa, bu hajmi kichik asar tufayli katta ilmga erisha olishi mumkin”. Yuqoridagi fikrlar olimning adabiyotga nisbatan qarashlarini ham aks ettiradi. Keyinchalik Ibn Sino tomonidan yaratilgan “Tayr qissasi” asari “Qushnoma” turkumidagi asarlar mohiyatida o‘zgarishlar uchun turtki bo‘ldi. Natijada bu turdagi manbalarda ijtimoiylikdan ko‘ra falsafiy-tasavvufiy qarashlar yetakchi mavqega

chiqdi. “Sharq mumtoz adabiyotida qushlar sayri bilan bog‘liq ilk asar sifatida Ibn Sinoning “Tayr qissasi” (“Qush qissasi”) risolasi e’tirof e’tiladi. Risolada qushlar ovchidan qochib, Podshoh huzuriga borganlari hikoya qilinadi. Bu risolaga raddiya tarzida yozilgan Abu Homid G‘azzoliyning “Rioslat at-tayr” (“Qush risolasi”) asarida syujet va kompozitsiya asosan saqlab qolinganda asar g‘oyasida keskin o‘zgarish yuz beradi: qushlar podshohning ishqida Uning o‘zini talab qilib, Oliy dargohga boradilar” [4.170]. Keyinchalik Fariduddin Attor, Alisher Navoiy hamda boshqa ijodkorlar tomonidan yaratilgan “Mantiq ut-tayr”, “Lison ut-tayr” va shu turkumdagi asarlar uchun asos vazifasini bajargan. Lekin unutmali kerakki, Ibn Sinoning “Tayr qissasi” faqat falsafiy tushunchlardan tashkil topmagan. “Asarning oxirida qushlar – odamlar, uzoq safardan so‘ng podshoh – Tangri huzuriga yetib boradi. Oyoqlaridagi kishandan qutulish yo‘lini Yaratgandan so‘raydi. Podshoh esa tuzoqni kim qo‘ygan bo‘lsa, xalos qiluvchi ham shu kishi ekanini aytadi. Asardagi ovchi – dunyo, qushlarga qo‘yilgan tuzoq – dunyoviy istaklar, ovchiga yuborilgan elchi esa – aql timsolidir. Faqatgina aql tufayli har qanday inson nafsiga bas kelishi mumkin. Bu o‘rinda Ibn Sino nafsni sindirish, fano bosqichida “o‘lmasdan burun o‘lishni” ko‘rsatmoqda. Insonning moddiy jihatdan o‘lmay turib, nafsni nazorat ostiga olish nazarda tutilgan. Aynan tasavvufda shu jihat bor, kimki Allohga yaqin bo‘lishni istasa, avvalo nafsini o‘ldirishi kerak” [5. 288].

Ibn Sinoning “Solomon va Ibsol” hamda “Hayy ibn Yaqzon” singari asarlari Sharq mumtoz adabiyotida o‘zining chuqur falsafiy ma’nodarga egaligi bilan ham ahamiyatlidir. Misol uchun “Solmon va Ibsol” asarida nafs va shayton ustidan g‘olib chiqqan Ibsol obraziga ham falsafiy jihatda – Sharq falsafasidan kelib chiqqan holda yonadshilgan. “Bu asarda Ibn Sino nafsni qanday ko‘rinishda va qanday hiylalar qilib, insonlarni qiyin vaziyatga solishini yigitning yangasi timsolida namoyon qilgan. O‘z ichki nafsni ammorasiga qanday qarshi chiqqan olishni Ibsol timsolida ochib beradi. Asarning oxirida Alloh taolo nomidan quyidagi gaplar keltirilgan : “Qaysi bir do‘stimizni huzurimizda bor hukmlardan istagani bilan imtihon qilsak, u sabr qilsa, shunga yarasha mukofotga sazovor bo‘ladi”. Abu Ali Ibn Sino kuchli sabr va irodaga ega bo‘lgan qahramoni orqali nafsni yengishni ko‘rsatib beradi. Ibsol ana shunday insonlardan biridir” [5. 227]. “Ibn Sino zamonasining yetuk shoiri ham bo‘lgan. U Sharq, xususan, fors poeziyasida ruboiy janrining asoschilaridan biri bo‘lib, ruboiylari o‘zida chuqur falsafiy xulosalarni ifodalaydi. Ibn Sino arabcha qit‘alar ham yozgan” [1. 69]. Olim G‘arb ilm-fani va falsafasi bilan yaxshi tanish bo‘lganligi sababli o‘z asarlarda Sharq va G‘arb falsafasini uyg‘unlashtira olgan. Aynan shu jihadan ham Ibn Sino asarlari butun dunyoda sevib o‘qiladi. Keyingi davrlarda yaratilgan ilmiy va badiiy asarlarda yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda Ibn Sino obrazini yaratishda turli xil yondashuvlar ko‘zga tashlanadi. Yozuvchi “obraz yaratar ekan, san’atkor o‘zining oldindan belgilab qo‘yilgan e’tiqodlaridan emas,

qahramonning hayoti mantig'idan, xarakteri mohiyatidan kelib chiqishi kerak" ekanligi o'z aksini topadi. Ayrim ijodkorlar Ibn Sinoni tabib sifatida gavdalantirsa, boqshqalari faylasuf sifatida, ayrim mualliflar esa shoir sifatida tasvirlaydilar. O'zbek adabiyotida ham Ibn Sino obrazini yaratishda ham shunday holatlar mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin. "Odil Yoqubov ham "Ko'hna dunyo" romanida tarixiy shaxs – Abu Ali Ibn Sino hayoti va faoliyatini tarixiy manbalar asosida badiiylashtirish bilan birga, adabiyotda tabib obrazining o'ziga xos jihatlarini keng yoritib bera oldi. Voqealardagi murakkab vaziyatlar, keskin, qaltis holatlar tabib obrazining badiiy psixologizmni ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Iste'dodli ijodkorning badiiy mahorati aynan tarixiy shaxsni hamda tarixiy haqiqatlarni badiiy adabiyotga ko'chirgan holda tasvirlashida yanada yaqqol namoyon bo'ladi" [6. 159]. Yuqoridagilardan shu narsani bilib olishimiz mumkinki Ibn Sino haqida asar yaratmoqchi bo'lgan sa'z san'atkori ijodiy niyati hamda asar g'oyasidan kelib chiqqan holda o'zi yaratmoqchi bo'lgan "Ibn Sino obrazini" kitobxon ko'z oldida gavdalantirishga harakat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Po'latova D. Abu Ali Ibn Sino ma'naviy merosida ratsionalizm va insonparvarlik g'oyalarining o'zaro vobastaligi. International journal of philosophical studies and social sciences. 2024.
2. Karimova M., Azimov S. Men sevgan yetuk olimlar. Journal of new century innovation. 2022.
3. Abu Ali Ibn Sino. Tibbiy risolalar. – Toshkent: Fan, 1987.
4. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018.
5. Alimardonova A. Nafsni anglatuvchi tushunchalar va timsollar. Educational Research in Universal Sciences. 2023.
6. Muhammadjonova G., Farhodjonova Sh. Tarixiy romanda tabib obrazi (Odil Yoqubovning "Ko'hna dunyo" asari misolida). Innovative developments and research in education. International scientific-online conference. 2024.

#### Referens:

1. Sayidolimov, Javoxirbek Baxtiyorjon o'g'li AGIOGRAFIK ADABIYOTDA TAZKIRA // ORIENSS. 2023. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/agiografik-adabiyotda-tazkira>
2. Baxtiyorjon o'g'li S. J. SHARQ AGIOGRAFIYASI RIVOJIDA SIYRA JANRINING AHAMIYATI //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 38-41.
3. Baxtiyorjon o'g'li, Sayidolimov Javohirbek. "SHARQ AGIOGRAFIYASI RIVOJIDA SIYRA JANRINING AHAMIYATI." SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH 2.14 (2023): 38-41.
4. Baxtiyorjon o'g'li, S. J. (2023). SHARQ AGIOGRAFIYASI RIVOJIDA SIYRA JANRINING AHAMIYATI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 2(14), 38-41.